

Sirdaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2026-yil yanvar-may oylari uchun

- I. Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Sirdaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1-iyun holatiga ko'ra, viloyatda **1 214** ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ishlab chiqarish sanoatida taqsimlanganda yuqori ulush **301** tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining **24,8 %**) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, **205** tasi (**16,9 %**) boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, **86** tasi (**7,1 %**) kiyim ishlab chiqarishga, **73** tasi (**6,0 %**) tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarishga, **72** tasi (**5,9 %**) mebel mahsulotlari ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-iyun holatiga ko'ra





II. Sirdaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan **10 952,4*** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi **108,2** % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Sirdaryo viloyati	10 952,4	108,2
Guliston sh.	658,3	108,0
Shirin sh.	2 554,6	96,5
Yangiyer sh.	736,6	112,6
Boyovut tumani	2 536,8	108,4
Guliston tumani	233,8	100,5
Mirzaobod tumani	250,7	128,9
Oqoltin tumani	115,6	119,1
Sardoba tumani	210,6	109,2
Sayxunobod tumani	338,8	108,6
Sirdaryo tumani	1 895,4	112,7
Xovos tumani	178,4	108,4

** viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Shirin shahrida (**131 618,4** ming so'm), Boyovut tumanida (**17 573,3**), Yangiyer shahrida (**14 638,0** ming so'm), Sirdaryo tumanida (**13 411,1** ming so'm), o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (**11 554,0** ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (**106,5** %) ni tashkil etgan bo'lsa, Mirzaobod tumanida (**126,4** %), Oqoltin tumanida (**117,3** %), Sirdaryo tumanida (**111,3** %), Yangiyer shahrida (**110,2** %) qayd etilib, viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-may oylarida




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-may oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush islab chiqarish sanoati hissasiga to'g'ri kelib **6 086,1** mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (**55,5 %**) ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda **38,7** mlrd so'm (**0,4 %**), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoati **4 771,0** mlrd so'm (**43,6 %**) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda **56,6** mlrd so'm (**0,5 %**) ni tashkil etdi.


Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi

2026-yilning yanvar-may oylarida


hajmi, mlrd so'm



fizik hajm indeksi, %



jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi





III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-may oylarida viloyatda **86,1** ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **131,7** % ga ko'paygan), **13,3** ming tonna kepak mahsulotlari (**14,8** % ga ko'paygan), **418,6** ming litr 100 % spirt aroq mahsulotlari (**44,1** % ga ko'paygan) hamda **1673,0** tonna dori vositalari (**315,2** % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may *	2025-yil yanvar-may *	2026-yil yanvar-may *
Tarkibida boshqa antibiotiklar bo'lgan chakana savdo uchun qadoqlangan dori vositalari, tonna	0,0	402,9	1 673,0
Narsa joylanadigan qoplar va paketlar, tonna	1 880,0	1 953,0	9 448,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	12,7	37,2	86,1
Don ekinlarini qayta ishlashdan hosil bo'lgan kepak, chiqit va boshqa chiqindilar, ming tonna	5,4	11,6	13,3
Uy xayvonlari uchun tayyor ozuqalar, tonna	0,0	2 185,0	3 114,5

* 2025-2026-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 29,2 % (2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,9 %), to'qimachilik, kiyim-kechak, teri va unga tegishli kimyoviy mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 27,2 % (2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 134,5 %), rezina va plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 6,1 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,9 % ni (2025-yilning yanvar-may oylarida 5,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 3,9 % (2,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 31,4 % (32,4 %), quyi texnologiyali 58,8 % (59,6 %) ni tashkil etgan.

Sirdaryo viloyatida yirik korxonalar tomonidan


shisha hamda sement, beton yoki sun'iy toshdan buyumlar mahsulotlari ishlab
chiqarish

yanvar-may oylarida


Ichimliklar va oziq-ovqat mahsulotlari uchun nominal sig'imi 2,5 litrdan kam bo'lgan rangsiz shishadan butilkalar ishlab chiqarish sanoatida 2026-yilning yanvar-may oylarida 73,4 mln dona (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 80,0 % ga ko'paydi), 2 821,8 tonna beton yoki sun'iy toshdan buyumlar ishlab chiqarish (0,5 % ga ko'paydi) ishlab chiqarildi.

Sirdaryo viloyatida yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ichimliklar va oziq-ovqat mahsulotlari uchun nominal sig'imi 2,5 litrdan kam bo'lgan rangsiz shishadan butilkalar hamda sement, beton yoki sun'iy toshdan buyumlar mahsulotlari ishlab chiqarish

Yanvar-may oylarida



■ Ichimliklar va oziq-ovqat mahsulotlari uchun nominal sig'imi 2,5 litrdan kam bo'lgan rangsiz shishadan butilkalar mln dona



■ Sement, beton yoki sun'iy toshdan buyumlar mahsulotlari ishlab chiqarish tonna



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida
sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi**

2026-yilning yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiyasini taqsimlash, uzatish hamda quvurlar orqali bug' va issiq suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 108,1 % ni, gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar esa 82,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may *	2025-yil yanvar-may *	2026-yil yanvar-may *
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln. kv.t.s	6 307,9	8 746,8	7 846,3
shundan:			
yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)	6 307,9	3 310,8	2 773,3
kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)	0,0	5 436,0	5 073,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	74,3	69,8	54,8

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlashda 5,8 % ga kamayish, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish 23,4 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may *	2025-yil yanvar-may *	2026-yil yanvar-may *
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar mlrd so'm	35,3	33,1	39,2
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar mlrd so'm	9,1	12,6	17,2

*2025-2026-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5 689,4** mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **51,9 %** ni tashkil etdi (2025-yilning yanvar-may oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi **45,5 %** ni tashkil etgan).



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajmi indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>



Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:

Sh. Bakiyeva
67 236-70-00 (2010)

Манзил:

